

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>D.Abdullayeva</b>   |     |
| XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....   | 324 |
| <b>F.Temirov</b>   |     |
| Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....   | 328 |
| <b>I.Naimov</b>  |     |
| Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....   | 333 |
| <b>R.Rahimov</b>   |     |
| Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....   | 337 |
| <b>D.A.Choriyeva</b>   |     |
| Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....   | 342 |
| <b>O.V.Mahmudov</b>  |     |
| O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya ..... | 353 |
| <b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>  |     |
| Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....  | 360 |
| <b>N.X.Choriev</b>   |     |
| Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....  | 365 |

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

|  |     |
|--|-----|
| <b>I.Yakubov</b>   |     |
| "Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....  | 368 |
| <b>P.Bakirov</b>   |     |
| Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....  | 373 |
| <b>I.Mannopov</b>  |     |
| Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....   | 379 |
| <b>Q.Yo'lchiyev</b>  |     |
| Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....   | 383 |
| <b>J.Eshonqulov</b>  |     |
| Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....   | 388 |
| <b>T.Matyobova</b>   |     |
| Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....  | 394 |
| <b>M.Qurbonaliev</b>   |     |
| Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili ..... | 399 |
| <b>I.Eshonqulov</b>  |     |
| Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....  | 405 |
| <b>H.Ne'matova</b>   |     |
| Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....  | 413 |
| <b>X.A.Xaitov</b>  |     |
| O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....  | 417 |
| <b>Samadi Nooria</b>   |     |
| Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....   | 421 |
| <b>A.G.Sabirdinov</b>  |     |
| Shuhrat she'rlariga bir nazar .....  | 427 |
| <b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>  |     |
| Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....                             | 433 |

#### TILSHUNOSLIK

|  |     |
|--|-----|
| <b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>   |     |
| Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....   | 439 |
| <b>Sh.A.Ganiyeva</b>   |     |
| Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....                                    | 443 |
| <b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>   |     |
| Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....  | 447 |
| <b>M.Saminjonov</b>  |     |
| Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....  | 450 |
| <b>O.Latipov</b>   |     |
| Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini ..... | 454 |

## MAQOLLARDA "BOLA" KONTSEPTINING IFODALANISHI

## ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА «РЕБЕНОК» В ПОСЛОВИЦАХ

## EXPRESSION OF THE CONCEPT "CHILD" IN THE PROVERBS

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyeva<sup>1</sup>, Nishonova Sayyora Saidovna<sup>2</sup><sup>1</sup>Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyeva<sup>2</sup>Nishonova Sayyora Saidovna

– Farg'ona davlat universiteti, dotsenti.

– Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, xorijiy tillar fakulteti, ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

**Annatsiya**

Mazkur maqolada "Bola" kontseptining mental tuzilma ekanligi, u turli mazmundagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti sifatida yoritilishi va ko'p qirrali aqliy-idrokiy hodisa ekanligi, kontseptni bevosita tashkil etuvchi turli lisoniy vositalar yordamida tadqiq qilishning tushunchaviy, idrokiy, tasviriy-madaniy va pragmatik qirralari mavjudligi xususida fikr yuritilgan. "Kontsept" tushunchasini o'rganishda ikkita asosiy yondashuv, ya'ni kognitiv va lingvomadaniyatshunoslik asosan til va madaniyat mosligini sinxron tarzda o'rganish va tasvirlashga bag'ishlanganligi hamda lingvomadaniyatshunoslik tildagi insondagi madaniy omilga, ikkinchi tomondan insondagi til omiliga yo'naltirilgan maqollarda qo'llangan "bola" kontseptini anglatuvchi leksemalar semantik guruhlariga ajratildi.

**Аннотация**

В данной статье концепт «Ребенок» представляет собой ментальную структуру, он освещается как квант знания в различном содержании и формах, представляет собой многогранный ментально-перцептивный феномен, в котором различают понятийный, перцептивный, наглядно-культурный и рассматриваются прагматические аспекты исследования с использованием различных языковых средств, непосредственно составляющих концепт. Существует два основных подхода к изучению понятия «концепт», то есть когнитивно-лингвистические исследования, которые в основном посвящены одновременному изучению и описанию совместимости языка и культуры, и лингвистические исследования, которые сосредоточены на культурный фактор в человеке в языке, а с другой стороны, лексемы, обозначающие понятие «ребенок», употребляемые в пословицах, делятся на смысловые группы разделенный.

**Abstract**

In this article, the concept of "Child" is a mental structure, it is illuminated as a quantum of knowledge in different contents and forms, and it is a multifaceted mental-perceptual phenomenon, and there are conceptual, perceptual, visual-cultural and pragmatic aspects of research using various linguistic tools that directly make up the concept. considered.

There are two main approaches to the study of the concept of "concept", that is, cognitive and linguistic studies, which are mainly devoted to the simultaneous study and description of the compatibility of language and culture, and linguistic studies, which are focused on the cultural factor in the person in the language, and on the other hand, the lexemes meaning the concept of "child" used in proverbs are divided into semantic groups separated.

**Kalit so'z:** концепт, когнитив, лингвомаданиятshunoslik, muloqot, прагматика, лисоний vositalar.

**Key words:** concept, cognitive, linguistic and cultural studies, communication, pragmatics, linguistic tools.

**Ключевые слова:** концепт, когнитивные, лингвокультурологические исследования, коммуникация, прагматика, лингвистический инструментарий.

**KIRISH**

Jahon tilshunosligida lison va tafakkur munosabati doirasida til birliklari idroki bilan shug'ullanish hamda antropotsentrik tilshunoslikning muhim kategoriyasi bo'lgan kontseptni o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Kelajak avlodni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilayotgan davrda tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish asnosida "bola" kontseptining tilda verballashuvi muammolarini hal etish tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mazkur masala og'zaki matnga muqobil ravishda qo'llanilayotgan turli diskurslarda namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mazkur atama o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Z.Xarris [1] tomonidan fanga olib kirilgan bo'lib, ilk qo'llanish davridanoq gapdan kattaroq birlikka, ya'ni matnga nisbatan ishlatilgan.

Dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan aksariyat ishlarda "diskurs" termini qo'llaniladi. Mazkur atama tilshunoslik hamda matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi sohalarda qo'llanilmoqda. Frantsuz olimi E. Benvenist [2] esa diskursni og'zaki matnga nisbatan qo'llagan. **Diskurs** (frants. discourse; ingl. discourse; lot. discursus) orqa-oldiga yugurmoq; aylanma takrorlanuvchi harakat; suhbat; nutq) ekstralingvistik-pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan boyitilgan og'zaki matn sanaladi. [3] Jumladan, G.K. Odilova [4] e'tiborni matnning shaxs tomonidan idrok qilinishiga qaratib, formal diskursning og'zaki va yozma matnda voqelanishini glyuttonik kommunikatsiya misolida monografik aspektida o'rganadi. Dastlab "diskurs" va "matn" atamaları ma'nodoshlik kasb etgan, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan qo'llangan. Hozirda esa diskursning ma'no mundariyasi juda kengaygan. Gollandlik tilshunoslar T.A. Van Deyk hamda V. Kinch [5] "keyingi yillarda bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda bog'lanishli nutq yoki diskursni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortganligini ta'kidlar ekanlar, "diskurs"ni "bog'lanishli nutq"ning sinonimi sifatida qo'llaydi. Bog'lanishli nutq deganda, albatta, og'zaki matn tushuniladi. Ko'rinadiki, "matn" va "diskurs" terminlari turlicha qo'llaniladi. Tadqiqotchilar frantsuz filologiyasida "diskurs" terminining bir-biridan farqli to'rt xil ma'noda qo'llanilishini aytadilar [6]. Diskurs matnga nisbatan murakkab tuzilma. B.R. Mengliev [7] ta'biri bilan aytganda, "matn + nolisoniy omillar = diskurs" ni hosil qiladi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muayyan diskursda kommunikantlar o'zlarining pragmatik maqsadi, niyatini adresatga ma'lum til tuzilmalari orqali yetkazishga intiladi. Masalan, diniy diskursda bolaning rayxonga qiyoslanishi mavjud: "Farzandlarda jannat ifori bor. Hazrat Umar roziyallohu anhuga qiz farzand ko'rganlari xushxabarini yetkazishganda: "Hidlaydigan rayxonim", deganlar." Ayni shu rayxon gul ma'nosi maqollarda ham voqelanadi. Shuningdek, bola leksemasini o'z ichiga olgan maqollarni tahlil qilishda "bola" kontseptining qo'shimcha belgilari (ko'pincha, uning yosh xususiyati) ta'kidlangan bo'ladi:

1. Bolaning go'daklik chog'i, beg'uborligi, kichik yosh davrida insoniy fazilatlarni singdirish uchun muhim vaqt ekanligi ifodalangan: Bola — yoshidan, xotin — boshidan.

2. Ta'lim-tarbiyaning murakkabligi, unda ibrat-namuna muhim jihatlardan biri ekanligi ta'kidlanadi: Bola boqqandan olov yoqqan yaxshi. Bola ko'rganini qilar, ota — bilganini. Bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki. Daraxtiga ko'ra — mevasi, ota-onasiga ko'ra — bolasi.

3. Bola timsolida ona namoyon bo'ladi. Bola — loy, ona — kulol. Ona bilan bola gul bilan lola. Ona suti bilan kirmagan Tana suti bilan kirmas.

Ona qilsa zo'rlikni, Bola tortar xo'rlikni.

Onadan ko'rgan to'n bichar, Otadan ko'rgan o'q yo'nar.

Ta'kidlash joizki, bola kontseptini ifodalagan maqollar turli diskurslarda hamda antropologiya, kognitologiya, folklor va psixologiya fanlari kesimida o'rganilganda kontseptning interpretatsiya maydoni uning periferiyasini tashkil qiladi va "kontsept yadrosining asosiy mazmuni asosida milliy, jamoaviy va individual ong tomonidan baholash va talqin qilishni o'z ichiga oladi" [8]. Bola kontseptidagi kichiklik periferiyasi quyidagi maqollarda *ip, it, kichik arava* metaforalari orqali voqelangan.

Igna qayoqqa yursa,

Ip ham shu yoqqa yurar.

Illat ketar, odat ketmas.

Itni qopag'on qilgan — egasi.

Katta arava qaydan yursa,

Kichik arava shundan yurar.

Bola kontsepti muloqotda R. Jacobson tasnifiga ko'ra, quyidagi o'rinlarda foydalaniladi:

1) argumentlarni qo'llab-quvvatlash;

2) yosh avlodni o'rgatish (tarbiyalash);

3) munosabatlarni kuchaytirish.

Shuningdek, bola kontsepti maqollarda Djin L. Briggs tavsiflovchi sakkiz omilni ham hosil qiladi:

1. Bog'lovchi ibora (oldingi gaplarni maqolga bog'lovchi gap, keyingi matn);

## TILSHUNOSLIK

2. Maqol va iborada aytilgan fikr egasi/shaxsi aniq bo'ladi;
3. Konnotativ jihat (ma'lum shaxsga qaratilgan maqol aslida insoniyatga yoki jamoaga nisbatan qo'llanadi);
4. Maqol matni (maqolning o'zi);
5. Maxsus assotsiatsiya (agar ma'lum bo'lsa, maqolning kelib chiqishini bayon qilish);
6. Umumiy ma'no va/yoki taxminiy holat (maqolni ochiq tushuntirish va/yoki qo'llash);
7. Kontekstga aloqadorlik (maqol qaysi kontekstga ochiq bog'lanishi aytiladi);
8. Tasdiqlash (so'zlovchi va tinglovchilar tomonidan maqolning to'g'riligini tasdiqlash).

**XULOSA**

Maqollar nutqiy vaziyatning qayta tashkil etilishi, yangilanishi, o'zgarishini amalga oshiruvchi vosita sanalib, bola kontsepti periferiyalari maqollarda nutqning pragmatik dasturi va kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kommunikativ maqollar yordamida bilimning diskursiv makoniga singib ketadi, fikr-mulohazalarni obrazli tasavvur etishga nutqning har bir imkoniyatidan to'liq foydalanishga intiladi; buning natijasida aniq matn shakllanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Harris Z.S. Discourse Analysis// Language.1952.No. 8. – p.1-30.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика – М.: Прогресс, 1974. – 293 с.
3. <https://oimurschool.ru/uz/nashi-deti/diskursivnyi-metod-cto-takoe-diskurs-analiz-kratkaya-istoriya/>
3. Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – М.: Высшая школа, 1980. –С. 143-144.
4. Дейк Ван Т.А., Кинч В Стратегии понимание связанного текста / Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. – М.: Изд-во Прогресс, Когнитивный аспект языка 1988. –С.153-211.
5. Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – М.:Высшая школа, 1980.– 143-144 с.
6. Менглиев Б.Р. Тилда имконият ва воқелик муштараклиги // “Маърифат”, 2013 йил 8 май.
7. Попова З.Д. Очерки по когнитивной лингвистике / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж: Истоки, 2001. – С.97.
8. YD Maxamadalievna, MH Madaminovna . Gnoseological aspects of research of issues of teaching schoolchildren to statement and solving problems// Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 2022
9. YD Maxamadalievna . Formation of cognitive competence of a preschool child // Modern Journal of Social Sciences and Humanities. 2022/5/11.
11. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology.Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225
- 12.Yuldasheva D.M.Anthropocentric Approach To Children`S Speech Study. Section 2: Linguistics Theory,Applied Linguistics. Sollection Of Materials Of The International Online Conference.Www.Research-Support-Senter.Som 2020.92-95
13. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Research(Ijmr). Impast Factor: 7.6.11.November.